

## MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA O'ZBEK XARAKTERI

*Pazliddinov Sherzodbek Qurbonovich*

*Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTBga qarashli 64-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi ona tili va adabiyot fanlar metodbirlashma rahbari*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining o'ziga xos xarakteri, mehr-oqibati, vatanga sadoqati, ota-onaga o'zaro hurmati, farzandlariga bo'lgan cheksiz mehribonliklari, opa-singil, qarindosh-urug'lariga bo'lgan oqibati, saxovatlilik, xushfe'lllik, shirinso'zlik, mardlik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi xislatlari haqida Muhammad Yusuf she'rlari misolida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Yusuf, she'riyat, xarakter xususiyati, o'zbek xalqi, madaniyat, qalb pokligi, mehr-oqibat, vatanga sadoqat, milliylik, yaxshilik, mehribonlik.

**Аннотация:** В этой статье раскрывается уникальный характер узбекского народа, его доброта, верность Родине, взаимное уважение к родителям, его бесконечная доброта к детям, уважение к братьям и сестрам, родственникам, щедрость, доброта, такие качества, как милость, храбрость, смиренie и трудолюбие обсуждаются на примере стихов Мухаммада Юсуфа.

**Ключевые слова:** Мухаммад Юсуф, поэзия, черты характера, узбекский народ, культура, чистота сердца, доброта, верность Родине, национальность, добро, доброта.

**Abstract:** In this article, the unique character of the Uzbek people, kindness, loyalty to the motherland, mutual respect for parents, infinite kindness to their children, respect for siblings, relatives, literacy, generosity, qualities such as kindness, sweetness, bravery, justice, imagination, and hard work are discussed through Muhammad Yusuf's poems.

**Keywords:** Muhammad Yusuf, poetry, character traits, Uzbek people, culture, purity of heart, kindness, loyalty to the motherland, nationality, goodness, kindness.

O'zbek xalqining sevimli shoirlaridan biri hisoblangan Muhammad Yusuf she'riyati o'zining ma'no-mazmuni jihatidan ham insonlar qalbidan munosib joy olishi bilan ham ahamiyatlidir. Shoир she'rlarini o'qir ekanmiz, ulardagi so'zlarning naqadar mazmunli ekanligini anglab olish osondek go'yo. Shoир she'rlarida o'zbek xalqining o'ziga xos xakarterga ega bo'lgan insonlari borligi bu xarakteri orqali esa nafaqat mamlakatimizda kerak bo'lsa butun dunyoda ajralib turuvchi xalq ekanligi ham bugungi kunda ayni haqiqat desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Shoир she'rlarida dunyoda o'zining urf-odatlari, mehr-oqibati, vatanga bo'lgan sadoqati, ota-onaga cheksiz ehtiromi, o'z farzandlariga kerak bo'lsa jonida fido

qilishga ham tayyor bo'lgan o'zbek xalqining o'ziga xos jihatlari bilan yagona millat hisoblanishini yana bir bora his qilish mumkin. Har bir inson bu hayotda yashar ekan avvalo o'zbek ekanligidan faxrlanib yashaydi, vatani yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida qo'lidan kelgancha ham ma'naviy ham moddiy jihatdan yordam bergisi kelaveradi va bu orqali yana bir bora o'zbek ekanligidan g'ururlanadi. Shoir tomonidan yozilgan "Nechun..." she'ri orqali yuqoridagi fikrlarning isbotini kuzatishimiz mumkin bo'ladi:

Nechun qulluq qilmay Andijonga men -  
 Shu yurtda tug'ildim, shu yurtda o'sdim,  
 Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim -  
 Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..  
 Shu aziz tuproqdir, shu qadim qo'rg'on,  
 Dunyoga Boburdek shohlarni bergen,  
 Mohlaroyimlarning sochlarin o'rgan...  
 Nechun qulluq qilmay Andijonga men. [1]

Ushbu she'rning ma'no-mazmuniga e'tibor berish orqali shuni anglab yetish lozimki, o'beklarga xos ijobiy xakarterlardan yana biri bu kamtarlik hisoblanadi. O'zbekiston xalq shoiri bo'lsada, taqdir taqzosi bilan Andijonda emas, balki Toshkentda ijod qilgan bo'lsada, ammo kamtarin inson bo'lgani uchun ham o'zi dunyoga kelgan Andijon viloyatini bir zum bo'lsada unutmagan desak maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'zbek xalqining o'ziga xos jihatni ham shunda namoyon bo'ladi. Shoir ushbu she'ri orqali yurtdoshlarimizning barchasini vatanga doimo sadoqatli bo'lishga vatanini har qanday holatda ham asrab-avaylashlari kerak ekanligini his qilib yashashlari lozimligi haqida fikr yuritib o'tgan bo'lsa ne ajab. O'zbek xarakteri haqida so'z borganda barchamiz bilganimizdek ijobiy va salbiy xarakterga ega insonlar bu hayotimizda yashab istiqomat qilib kelar ekan, albatta ularning xarakteri orqali ko'plab jihatlari shu xarakterida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda xarakter xususiyatlarining 4 turi haqida ham ma'lumotlar mavjud:

- 1) jamoaga, guruhga, ayrim insonga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqa);
- 2) mehnat faoliyatiga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish va boshqa);
- 3) narsa va ashylarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalarga ayab yoki ayamasdan yondashish va boshqa);
- 4) insonning o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (izzatnafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, dimog'dorlik, kamtarinlik va boshqa). [2]

O'zbek xarakteriga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri bu yaxshilikdir. Bu hayotda yashar ekanmiz albatta har xil turdag'i xarakter egalari bilan muloqot

qilamiz, muloqot jarayonida ko'plab insonlarning fikriga qulq solsak insonlarga qo'lidan kelganicha yaxshilik qilish kerakligi haqida so'z boradi. Bu jihat insonlarning hammasida ham kuzatilavermaydi. Nazarimda yaxshilik qilish ham inson xarakteridan kelib chiquvchi holatdan biri hisoblansa kerak. O'zbek millatiga mansub insonlar borki, albatta ular qo'lidan kelganicha vatandoshlariga nafaqat vatandoshlariga kerak bo'lsa, boshqa millat vakillariga ham chin dildan yaxshilik qilishadi. Bu o'zbeklarga xos bo'lgan eng asosiy xarakter xususiyatlardan biri hisoblanadi. Muhammad Yusuf tomonidan bizga ma'naviy meros sifatida qolgan she'rlari bugungi avlodga shoir tomonidan qilingan yaxshilik emasmi, garchi ijodkor oramizda hozir yo'q bo'lsada uning she'rlari doimo qalbimizda mangu yashab kelaveradi. Shoirning oldiga qo'ygan maqsadi ham bizlarni mamalakatda yashovchi har bir inson uchun yaxshilik qilishga chorlash va bu yaxshilik natijasida bizning yosh avlodlarimizga o'zbek millati qay darajada sahovatli va mehribon insonlar ekanligini anglab yetish lozim bo'ladi. O'zbek tabiat (xarakteri) – o'zbek millati vakillariga xos bo'lgan ko'plab ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zida mujassam etuvchi tushuncha. Har bir xalqning milliy tafakkurida shu xalqqa xos va mos bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar ta'siri natijasida shakllangan jihatlar mavjudki, u shu xalqning ruhiyati, mentaliteti, xarakterini ifodalaydi, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti rivojini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Iymon va e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalari, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarni hurmat qilish, savodxonlik, saxovatlilik, xushfe'llik, shirinso'zlik, mardlik, odillik, hayolilik, mehnatsevarlik kabi xislatlar shular jumlasidandir. [3] O'zbek xarakteriga xos xususiyatlardan yana biri bu mehribonlilikdir. Har bir ota-onal borki, farzandlarining baxtu kamolini doimo o'ylab yashaydi. Ularning jamiyatda tug'ilib o'sgan yurtiga munosib insonlar bo'lishlari uchun ham tarbiya beradi, o'qitadi, shu bilan birga asrab-avaylaydi. Farzandlar esa ulga'yib ota-onasi, vatani uchun munosib xizmat qiluvchi insonlar bo'lib yetishadi. Shu o'rinda barcha ota-onalarimizni biz farzandlar har qanday holatda hurmat qilishimiz, qo'limizdan kelganicha ularni ardoqlashimiz lozim bo'ladi. Yurtimizda yoshlarning bilim olishlariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Buning natijasida yoshlarning o'zlarining bilimlari orqali mamalakatimizning butun dunyoga yana ham tanilishida o'z hissalarini ham qo'shib kelmoqdalar. Muhammad Yusuf ham umri davomida barcha otalarga xos bo'lgan mehribon inson edi. Bu mehribonlik zamirida farzandlarga bo'lgan chesiz sadoqat va ular uchun bu hayotda yashayotgani agar ular bo'lmasa, yashashnida qizig'i qolmasligi ular tufayli bu hayotda ko'plab she'rlarni yozayotgani har bir mehnati natijasida oilasining o'ziga yarasha o'rni va ahamiyati shoir uchun yuqori darajada ekanligini bilib olish lozim. Buni quyidagi "Xavotir" she'r orqali ham bayon etadi:

Qo`rqaman, ertaga men o`lib ketsam,

Yotar bo`lsam qumga botib ko`zlarim,

Ko`nglimni ko`chkiday bosadi bir g`am –  
Yig`lashni ham bilmas mening qizlarim...

Eng yaqin do`sstarim g`iybatim qilar,  
Eng zaif dushmanim ustidan kular.  
Ular-ku, ne qilsa o`zlarini bilar,

Yig`lashni ham bilmas mening qizlarim.... [4]

Yuqoridagi she`rni o`qir ekanmiz, albatta ko`z oldimizga ota-onalarimiz va farzandlarimiz keladi. Bu mehribonchilik albatta o`zbeklarga xos bo`lgan xarakter xususiyati hisoblanib, bu tuyg`u orqali ota-onalar farzandlarining bu olamda yagona bo`lgan boyliklari ekanligini ham bilib olishimiz mumkin. Har bir inson dunyoga kelar ekan, uning mehribon, samimi, mehr-oqibatli farzandi uchun har narsaga tayyor bo`lgan ota-onalar timsoli gavdalanadi. Farzandlar ham o`z o`rnida ota-onalarini hurmat qilishi va ularga nisbatan mehrli, sadoqatli bo`lib ularning doimo xizmatlarida bo`lishlari lozim. Yuqoridagi she`rda go`yoki, shoir bu dunyoni erta kunda tark etishini bilgandek, farzandlarining ota sifatida o`zidan keyingi hayotidan xavotirlanib yashayotganini ta`kidlab o`tgandek bo`ladi nazarmizda. O`zbek tabiat qiziq va shu bilan birga o`ziga yarasha urf-odatlari, milliy qadriyatlar, an`analari borki, bularsiz hayotimizni tessavur qilish qiyin. Insonlarga xos xarakter xususiyatlaridan yana biri bu shirinso`zlikdir. Chunki har bir inson borki, shirinso`zlikni yoqtiradi va shirinso`zi bilan insonlarning qalbini rom etadi. Shirinso`zli odam doimo el ardog`ida yashaydi, barcha insonlar ularni hurmat qiladi. Shu bilan birga shirinso`zli bo`lishganligi uchun ham jamiyatda alohida o`rin va ahamiyatga ham ega bo`ldilar. O`ziga xos xarakter egalari borki, bu kabilarsiz hayotda yashash albatta qiyinchilik tug`diradi. Bu ham bo`lsa saxovatlilik, bu hayotda saxovatli bo`lish har kimga ham nasib qilavermaydi. Chunki saxovatli insonlar birinchi o`rinda o`zlarini emas, aksincha vatandoshlarini o`ylagan holda yashaydilar. Bir insoni boshiga musibat tushib qiynalib qolsa, albatta unga imkoniyatidan kelib chiqqan holda yordam beradi. Va bu orqali u inson o`zining o`zbek ekanligi bilan birga xarakter xususiyatini ham namoyon etib, atrofdagi yurtdoshlariga ham saxovatli bo`lishda ibrat namunasi bo`lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf she`riyatida o`zbek xarakterining o`ziga xos xususiyatlari, shu bilan birga shu xarakter orqali yashab turgan jamiyatimizda alohida dunyo tan olgan mamlakatlardan bir ekanligi bilan ham e`tibordan chetda qolmaganligini guvohi bo`lishimiz mumkin. Insondan bu hayotda faqat yaxshilik qoladi va shu orqali vafotidan so`ng ham barcha ularni yaxshi nom bilan tilga oladi. Bu borada O`zbekistonning eng yosh xalq shoiri hisoblangan Muhammad Yusufning adabiy merosi ham barchamizga ibrat namunasini o`taydi. Shoir garchi qisqa umr ko`rgan bo`lsada ammo uning she`rlari doimo xalqimizning qalbidan joy olib, san`atkorlarimiz tomonidan shu kunga qadar qo'shiq qilib kuylanib kelinayotganligi ham buning yoqrin misoli hisoblanadi. Shoirning ayrim she`rlarida

o'zbeklarga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarining yorqin ifodalab berilganini kuztishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. “ШАРК” НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ 2007, 305-бет
2. <https://soyina.uz/uz/teahause/1158>
3. <https://oyina.uz/uz/teahause/2668>
4. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent: “PHAROS AMBITION” 2022, 33-bet
5. Rahmonov, B. (2021). Muhammad Yusuf lirikasida milliy xarakter talqini. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.
6. Маънавият асосий тушунчалар рўйхати. Республика маънавият ва маърифат маркази “Ўзбек файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, Тошкент 2021